

ERKIN A'ZAM - MOHIR YOZUVCHI, MUHARRIR VA PUBLITSIST

Sharipova Feruza Tolib qizi.

Toshkent pedagogika texnikumi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: ushbu maqolada Erkin Azamning ijodiy faoliyati publistik ishlari va yutuqlari shuningdek adabiyotga qo'shgan hissasi batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Erkin A'zam, publistika, ijodiy faoliyat, adabiyot, ilmiy ishlar, jurnallar, muharrirlik.

Kirish: Bugungi kunda buyuk publistlar insonlar haqida gap ketganda Erkin A'zam ular ichida alohida ahamiyatga ega. Keling Erkin A'zam hayoti ijodiga to'xtalib o'taylik. Erkin A'zam 1950-yilda Surxondaryoda tug'ilgan. 1967-yilda o'rta maktabni a'lo baholarga tamomlaganidan so'ng, Erkin A'zam Toshkent Davlat Universitetiga o'qishga kirgan. 1972-yilda Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti)ning jurnalistika fakultetini tamomlagan O'qishni tugatganidan so'ng uning jurnalistika sohasida faoliyati boshlangan. Dastlab respublika radiosida muharrir, „Guliston“ va „Yoshlik“ jurnallarida bo'lim muharriri, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyotida tahririyat mudiri lavozimlarida faoliyat yuritgan. 1992—1994-yillarda O'zbekiston milliy axborot agentligida bosh direktori o'rinbosari bo'lgan. 1995-yildan „Tafakkur“ jurnali bosh muharriri, Erkin A'zamning yozuvchilikdagi ilk uchqunlari maktab davridayoq porlay boshlagan. Uning „Inson“ hikoyasi 1966-yilda viloyat gazetasida chop etilgan. Keyinchalik uning „Chiroqlar o'chmagan kecha“ nomli hikoyalar to'plami 1977-yilda chop etilgan. Biroz tanaffusdan keyin, anqirog'i 1981-yilda yozuvchining "Otoyining tug'ilgan yili nomli qissa va hikoyalar to'plami chop etilgan.

Asosiy qism: Erkin A'zam "Otoyining tug'ilgan yili to'plami uchun o'zbekiston yoshlar ittifoqining maxsus mukofoti bilan taqdirlangan.. Shundan so'ng iste'dodli yozuvchining „Olam yam-yashil“ (1984), „Javob“ (1986), „Bayramdan boshqa kunlar“ (1988), „Mir v tsvetax“ (1999), „Pakananing oshiq ko'ngli“ (2001), „Kechikayotgan odam“ (2002) singari bir qator roman, qissa va hikoyalari ketma ket chop etilgan. Yozuvchining „Jannat o'zi qaydadur“, „Shajara“,

„Farrosh kampirning tushi“, „Xonadon egasi“, „Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi“ kabi yozilgan asarlari asosida respublikamiz teatrlarida pyesalar sahnalashtirilgan va muvaffaqiyatga erishgan. Erkin A'zam o'zbek kino dramaturgiyasi rivojiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Yozuvchi qalamiga mansub asarlar orasida „Chantrimore“, „Parizod“ asarlari asosida suratga olingan filmlar o'zbek kinomatografiyasida yangilik bo'lgan. Bundan tashqari „Piyoda“, „Dilxiroj“ asari asosida suratga olinga film xalqaro e'tiborga sazovor bo'lgan bo'lib Germaniya va Fransiy telkanallari orqali efirga uzatilgan. Bu film nusxasi Yaponiyadagi Fukuoko muzeyida saqlanadi. Yozuvchining „Erkak“ asari asosida suratga olinga film „Kinoshok“ festibalida ishtirok etib „Eng yaxshi ssenariy“ nominatsiyasida g'olib deb topilgan. Butun miqiyosida o'tkaziladiga Vezul kinfestivalida bosh sovrin Gran-Priga ega chiqqan. „Zabarjad“ asari asosida suratga olingan film „Moskovskaya premyera“ va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining bir necha diplomlariga ega bo'lgan. "Suv Yoqalab" filmi „Zolotoy Vityaz“ kinofestivalida „Serebryanniy Vityaz“ mukofotiga loyiq deb topilgan, New-York shahrida o'tkazilgan kino forumida namoyish etilgan. "Parizod" filmi kinoshok festivalida bosh sovringa ega bo'lgan. Asarlarini ruhan birlashtirib turadigan jihat – insoniy erk, har qanday zo'ravonlikka munosabat masalasidi O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam qalamiga mansub asarlar rus, ukrain, belarus,qozoq, tojik,turkman, bolgar, xitoy, gruzin tillariga tarjima qilingan.

2015-yilda yozuvchining qissalar to'plami Angliya va Fransiyada chop etilgan. Ko'rib turganingizdek o'zining serqirra ijodi bilan butun dunyoga mashhur ijodkorimiz nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda ham ma'lum va mashhurdir uning har bir asrlari publistikasi jurnallardagi faoliyati bir-biriga o'xshamagan serqirra ijodi diqqatga sazovordir.

Xulosa. Erkin A'zamning publitsistik faoliyati Erkin A'zam publitsistik maqolalarida: jamiyatdagi ma'naviy muammolar, insoniylik va axloq masalalari, milliy qadriyatlar, mustaqillik davridagi o'zgarishlar, adabiyot va san'atning jamiyatdagi o'rnini kabi mavzularni chuqur tahlil qilgan. Uning publitsistik uslubi: sodda va ta'sirchan, hayotiy kuzatuvlarga boy, tanqidiy va falsafiy ruhdagi fikrlar bilan ajralib turadi. Asarlaridagi publitsistik ruh Erkin A'zamning ko'plab hikoya va qissalarida ham publitsistik ruh seziladi. U oddiy insonlar hayoti orqali:

davr muammolarini, jamiyatdagi loqaydlikni, ma'naviy tanazzulni, inson ruhiyatidagi ziddiyatlarni ochib beradi. Publitsist sifatidagi ahamiyati Erkin A'zam: o'zbek publitsistikasida mustaqil fikrni targ'ib qilgan, o'quvchini mushohadaga chorlagan, milliy ong va ma'naviyat masalalariga alohida e'ibor qaratgan ijodkor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar to'plami

1. Toshkent Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981-yil, 8,0 b.t.
2. Rasulov A. Erkin A'zam ijodiga nazar. Sharq yulduzi, 2010. №5. 6-b. Qobulova N. B. "Erkin A'zam nasrida davr va inson konsepsiyasi" – PhD dissertatsiyasi.
3. Toshxujaeva Sh.G. "Erkin A'zam asarlari lingvopoetikasi" – PhD dissertatsiyasi.
4. Tursunova S. A. "Erkin A'zamning 'Kechirasiz, o'rtoq muallim' asarida ironik mazmun ifodalash